



ITALYAN TILIDA SEVGI VA G'AM EMOTSIYALARINING FRAZEOLOGIK IFODASI VA LINGVOKOGNITIV TALQINI

Shavkatova Sevinch Abdulla qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti 2-bosqich magistranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19843082>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 24-aprel 2026 yil
Ma'qullandi: 26-aprel 2026 yil
Nashr qilindi: 28-aprel 2026 yil

KEYWORDS

emotsiya, amore(sevgi),
tristezza(g'am), yurak,
lingvokognitiv tahlil,
frazeologik birliklar, metafora,
somatik komponentlar.

ABSTRACT

Mazkur maqolada emotsiyalar psixologik va lingvokognitiv nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor amore(sevgi) va tristezza(g'am) emotsiyalarining konseptual mohiyatini aniqlashga, ularning inson ruhiy hayotidagi o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan. Tadqiqot davomida ushbu emotsiyalarning metaforik va metonimik ifodalanish modellari ko'rib chiqilib, ayniqsa italyan tilidagi frazeologik birliklar misolida ularning lingvokognitiv xususiyatlari ochib beriladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sevgi va g'am emotsiyalari til tizimida ko'pincha somatik komponentlar, xususan yurak, ko'z, bosh kabi birliklar orqali ifodalanadi. Bu esa emotsiyalarning inson ongida jismoniy tajriba bilan uzviy bog'liq holda konseptuallashtirilishini tasdiqlaydi. Shuningdek, maqolada ushbu emotsiyalarning qarama-qarshi, ammo o'zaro bog'liq tabiati ham asoslab beriladi.

Inson hayoti davomida yuz beradigan psixik jarayonlar tizimida emotsiyalar muhim va ajralmas o'rin egallaydi. Ayniqsa, amore(sevgi) va g'am(tristezza) inson ruhiy tajribasining eng chuqur va universal ko'rinishlari sifatida ajralib turadi. Emotsiya – bu shaxsning ichki va tashqi ta'sirlarga javoban yuzaga keladigan ruhiy-hissiy holat bo'lib, aynan sevgi va g'am orqali inson o'zining eng nozik kechinmalarini namoyon etadi.

Kundalik hayotda inson turli hissiy holatlarni boshdan kechiradi, biroq sevgi va g'am bu jarayonda alohida ahamiyat kasb etadi. Sevgi ko'pincha ijobiy energiya, yaqinlik va ruhiy ko'tarinkilik manbai sifatida namoyon bo'lsa, g'am esa yo'qotish, tushkunlik va ichki iztirob bilan bog'liq holatlarni ifodalaydi. Ushbu ikki emotsiya bir-biriga qarama – qarshi bo'lishiga qaramay, inson ruhiy dunyosida o'zaro uzviy bog'liq holda mavjud bo'ladi.

Zamonaviy psixologik va lingvistik tadqiqotlarda sevgi va g'am inson faoliyatining muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. Ular nafaqat shaxsning ruhiy holatiga, balki uning fikrlashi, qaror qabul qilishi va ijtimoiy munosabatlariga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sevgi insonni rag'batlantiruvchi, ilhomlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lsa, g'am esa ko'pincha ichki tahlil va o'zini anglash jarayonini kuchaytiradi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi amore va tristezza emotsiyalarining konseptual asoslarini aniqlash, ularning metaforik va metonimik ifodalanishini tahlil qilish hamda italyan tilidagi frazeologik birliklar misolida lingvokognitiv xususiyatlarini yoritishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat:

Amore va tristezza emotsiyalarining konseptual asoslarini aniqlash; ushbu emotsiyalarni ifodalovchi metoforik modellarni tahlil qilish; italyan tilidagi frazeologik birliklar tahlil qilish; ushbu birliklar orqali emotsiyalarning lingvokognitiv xususiyatlarini yoritish.

Asosiy qism Emotsiyalar masalasi psixologiya fanida uzoq yillardan beri o'rganib kelinayotgan muhim yo'nalishlardan biridir. Ilk bor emotsiyalar haqida ilmiy fikrlar Aristotel va Gippokrat davridayoq shakllangan bo'lib, ular hissiyotlarni inson tanasidagi fiziologik o'zgarishlar bilan bog'lashgan. Keyinchalik, XIX – XX asrlarda bu yo'nalish chuqur tadqiq etilib, J.Uotson, V.Vundt, U.Jeyms kabi olimlar emotsiyalarning psixik jarayonlardagi rolini ilmiy asoslab berganlar. Bundan tashqari, L.S. Vigotskiy, K. Izard va D. Golemanlarning ishlari emotsional intellekt, hissiy barqarorlik va inson xulqidagi hissiyotlarning ahamiyatini yoritib bergan. Uning fikriga ko'ra, emotsiyalar insonning kayfiyati, ijtimoiy munosabatlari va motivatsiyasini boshqaruvchi asosiy omildir¹.

Tadqiqotchilar Paul Ekman, E. Richard Sorenson va Wallace V. Friesen fikriga ko'ra, barcha insonlarda – turli madaniyatlarga mansub bo'lishidan qat'iy nazar – uchraydigan tug'ma asosiy emotsiyalar mavjud. Ullar oltita universal emotsiyani ajratib ko'rsatadilar: **rabbia**(g'azab), **disgusto**(jirkanish), **paura**(qo'rquv), **gioia**(quvonch), **tristezza**(qayg'u) va **sorpresa**(hayrat)².

Shu bilan birga, ba'zi tadqiqotlarda inson hissiyotlarining yanada kengroq ifodalanishi ham muhokama qilinadi. Masalan, amore(sevgi) – u muayyan shaxs yoki obyektga nisbatan shakllanuvchi kuchli emotsional bog'lanish, chuqur affektiv moyillik va ijobiy baholash(ehtirom) komponentlarini o'zida mujassam etgan ko'p qirrali psixologik-kognitiv fenomen hisoblanadi. Ushbu tushuncha o'zining semantik va funksional kengligi bilan ajralib turib, turli ko'rinishlarda(romantik, oilaviy, do'stona) namoyon bo'ladi. Sevgi emotsional holatlar tizimida eng ziddiyatli va ko'p qirrali fenomenlardan biri sifatida tavsiflanadi. U insonda kuchli ijobiy hissiyotlarni yuzaga keltirib, quvonch va mamnuniyat holatini shakllantirishi, shu bilan birga chuqur izzat va qayg'u hissiyotlarini ham yuzaga chiqarishi mumkin.

Ko'zlar odatda insonning ichki ruhiy holatini aks ettiruvchi muhim vosita sifatida talqin qilinadi; shu bois nigoh orqali shaxsning ichki dunyosi haqida sezilarli darajada ma'lumot olish mumkin. Ko'zlar insonning emotsional holatini, jumladan qo'rquv va eng nozik hissiy kechinmalarini bevosita va tezkor tarzda aks ettiruvchi muhim indikator sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur omil tufayli sevgi munosabatlarida nigoh emotsional mazmunni yetkazuvchi muhim semiotik vosita sifatida xizmat qiladi. "Lo sguardo amoroso rappresenta l'amore"(ko'zlarida sevgi jilolanadi) metonimiyasi italyan frazeologik tizimlarida aks etib, ko'z

¹ Amirova N. Emotsiyalar va ularning inson hayotidagi ahamiyati // Yangi O'zbekiston talabalari axborotnomasi. – 2025 yil 14 oktabr. – 3-jild, 10-son. – B. 38

² Paul Ekman, E. Richard Sorenson, Wallace V. Friesen. *Pan-Cultural Elements in Facial Displays of Emotion*. Science, 1969, pp. 86–88

qarashi sevgi emotsiyasining neverbal ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, *covare con gli occhi* – ko'z qarashi orqali mehr-muhabbatini ifodalamoq, *fare gli occhi dolci* – iliq nigoh bilan qaramoq, *occhio da pesce morto* – emotsional jihatdan neytral va ifodasiz nigoh kabi birliklarda namoyon bo'ladi.

Yurak emotsiyalarning universal markazi sifatida qadimdan jamoaviy tasavvurda ruh va tana o'zaro tutashadigan makon hamda insonning samimiyligi va tuyg'ularning chuqurligi mujassam bo'ladigan markaz sifatida konseptuallashtiriladi. **Il cuore rappresenta l'amore** – yurak konsepti sevgi emotsiyasining ramziy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi, ushbu metonimik model har ikki til tizimida ham markaziy o'rin egallab, sevgi konseptining asosiy kognitiv strukturalaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Quyida "cuore"(yurak) konsepti bilan bog'liq, sevgini ifodalovchi birikmalar keltiriladi: *affare di cuore* – yurak ishi(emotsional-affektiv hodisa), *legame del cuore* – qalb rishtasi, *colpire di cuore* – yuragiga urmoq, *essere due cuori e una capanna* – ikki yurak va bir kulba ya'ni moddiy sharoitdan qat'i nazar emotsional baxt holati, *questioni di cuore* – sevgi masalalari, *rubare il cuore* – yuragini o'g'irlamoq³.

Masalan, *Non pensavo che qualcuno potesse rubarmi il cuore così velocemente.* (kimdir mening ko'nglimni bunchalik tez zabt eta oladi deb o'ylamagan edim).

Amore bilan bog'liq bo'lgan italyan tilidagi iboralar tahlili bilan tanishamiz. *Perdere la testa per qualcuno* – kimnidir deb aqlini yo'qotish iborasi shaxsning kuchli emotsional ta'sir ostida ratsional nazoratini vaqtincha yo'qotishni ifodalaydi. Unda "**testa**" ratsionallik markazi sifatida talqin qilinib, uning "yo'qotilishi" sevgi holatini affektiv komponentining ustun kelishini bildiradi. Ushbu frazeologizm sevgi konseptini irratsional, kuchli va boshqarib bo'lmas hissiy jarayon sifatida ifodalab, subyektning ichki holarini obrazli va ta'sirchan tarzda ochib berad

Essere al settimo cielo – juda baxtli bo'lmoq; *dopo anni di attesa e di speranza mai spenta, quando finalmente lei gli ha detto di sì, lui era al settimo cielo*, come se avesse toccata l'infinito con l'anima (yillar davom etgan kutish va so'nmagani umidlardan so'ng, u nihoyat "ha" deganida, u go'yoki ruhi bilan cheksizlikka yetgandek, nihoyatda baxtli edi. Bu idiomatik ibora kuchli ijobiy emotsiyani – ayniqsa sevgini, bundan tashqari quvonch yoki orzu amalga oshgan paytdagi holatni ifodalaydi. "Settimo cielo(yettinchi osmon)" metaforasi maksimal darajadagi baxtni anglatadi, ya'ni oddiy hursandchilikdan ham yuqori darajadagi ko'tarinkilikni bildiradi. Gapga qo'shilgan "come se avesse toccata l'infinito con l'anima" qismi esa baxtni yanada kuchaytirib, metaforik va poetik tus beradi.

Tristezza(g'am) ko'pincha noxush voqealar yoki birin ketin yuz beradigan muvaffaqiyatsizliklar natijasida paydo bo'ladi. Bu holatlarda inson o'zini ojiz his qiladi, vaziyatga qanday munosabat bildirishni bilmaydi va chiqish yo'lini topa olmaydi. Odatda, bu hissiyotning asosiy manbai inson uchun aziz bo'lgan narsa yoki kishidan ayrilish hisoblanadi. Bu shunday tuyg'uki, inson undan qochishga urinadi, lekin u hayotning muqarrar qismi bo'lgani uchun baribir qalbgga kirib keladi. Shunda kayfiyat so'nadi va inson o'zini ayblash, o'zini past ko'rish holatiga tushadi. G'am ham baxt kabi boshqalar bilan bo'lishilganda yengillashadigan hissiyotdir. Italyan tilida g'amni turli iboralar orqali ifodalash mumkin:

³ Zingarelli. *Vocabolario della lingua italiana*, voce "cuore". Zanichelli Editore, Bologna.

avere il cuore stretto-yuragi siqilmq; farsi scoppiare il fegato-ich-etini yemoq(hasad va achchiqdan), “fegato”-jigar g’azab va jahlning markazi sifatida ishlatiladi; non sapere dove sbattere la testa/il capo-chorasiz qolmoq; rodersi il cuore-ichidan yemirmoq; spezzare il cuore-dilini og’ritmoq; mordersi le dita le mani-qattiq pushaymon bo’lmoq.

Mazkur iboralar, odatda, tana a’zolarini anglatuvchi birliklar hamda jismoniy og’riqni ifodalovchi fe’llar bilan birikadi, masalan, scoppiare – yorilmoq, sbattere – urmoq, rodersi – kemirmoq, spezzare – sindirmoq, mordere – tishlamoq kabi fe’llar g’amni kuchaytirish uchun qo’llaniladi va bu holat inson o’ziga go’yo metforik tarzda jismoniy azob yetkazayotgandek tasavvur qilinishiga asoslanadi. Misol qilib, non sapere dove sbattere la testa(boshini qayerga urishni bilmaslik ya’ni chorasiz qolmoq) iborasi intensive og’riq va umidsizlikni ifodalaydi. Ushbu holatda insonning ichki iztirobi shu darajaga yetadiki, u metaforik tarzda o’zini yengillashtirish uchun jismoniy harakat (devorga bosh urish)ga ehtiyoj sezgandek konseptuallashtiriladi, ammo bu ehtiyoj ham qondirilmaydi.

O’zbek tilida ham xafalik va ichki iztirobni ifodalovchi frazeologik birikmalarda asosan **yurak** va **ko’ngil** bilan bo’g’liq fe’llar yetakchi o’rin tutadi. Xususan, ezilmoq, siqilmoq, og’rimoq, achimoq kabi fe’llar “yurak” va “ko’ngil” komponentlari bilan birikib, insonning ruhiy og’ir holatini ifodalaydi (masalan, yuragi ezildi, ko’ngli siqildi). Shu bilan birga, ichki kechinmalarini tasvirlashda kuyinmoq, o’rtanmoq, qiynalmoq fe’llari ham faol qo’llaniladi va ular g’amning chuqur, davomli kechishini bildiradi.

Xulosa Yuqoridagi tahlillar shuni ko’rsatadiki, emotsiyalar inson psixikasining muhim tarkibiy qismi bo’lib, ular til orqali konseptual va obrazli shaklda ifodalanadi. Xususan, sevgi(amore) va g’am(tristezza) emotsiyalari murakkab va ko’p qirrali fenomen sifatida namoyon bo’lib, ular nafaqat qarama-qarshi, balki o’zzaro bog’liq hissiy holatlar ekanligi aniqlandi.

Italyan va o’zbek tillari materiallari asosida olib borilgan qiyosiy tahlil shuni ko’rsatadiki, emotsiyalarni ifodalashda tana a’zolari, xususan “yurak”, “ko’z”, “bosh” kabi somatik komponentlar asosiy konseptual vosita sifatida xizmat qiladi. Bu esa inson ongida emotsiyalar ko’pincha jismoniy tajriba bilan bog’liq holda konseptuallashtirilishini tasdiqlaydi. Frazeologik birliklarda qo’llaniladigan metafora va metonimiyalar emotsional holatlarni yanada kuchliroq va ta’sirchanroq ifodalash imkonini beradi.

Umuman olganda, emotsiyalar til va tafakkur o’rtasidagi uzviy bog’liqlikni namoyon etuvchi muhim fenomen bo’lib, ularni lingvistik va kognitiv jihatdan o’rganish insonning ichki dunyosini chuqurroq anglashga xizmat qiladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

- 1.Amirova, N. “Emotsiyalar va ularning inson hayotidagi ahamiyati.” Yangi O’zbekiston talabalari axborotnomasi, vol. 3, no. 10, 14 Oct. 2025, p. 38.
- 2.Accademia della Crusca. Dizionario dei modi di dire italiani. Firenze, 2010.
- 3.Karimov, A. Til va tafakkur o’zaro bog’liqligi. Toshkent: Fan nashriyoti, 2018.
- 4.Zoltán Kövecses. Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling. Cambridge University Press, 2000.
- 5.Paul Ekman. Emotions Revealed: Recognizing Faces and Feelings to Improve Communication and Emotional Life. Times Books, 2003.
- 6.O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. O’zbek tilining izohli lug’ati. Toshkent, 2020.
- 7.Treccani. Vocabolario della lingua italiana. Roma, 2012.

8. Lev Vygotsky. *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press, 1978.



INNOVATIVE
ACADEMY